

**“TASDIQLAYMAN”**

**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi**

**boshlig’i x.b.**

**T.L.Sidikov**

**2020 yil**



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi**

**to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Samarqand viloyat statistika boshqarmasining Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari huquq va majburiyatlar, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Samarqand viloyat statistika boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Samarqand viloyat statistika boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomlarga, hamda mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim ishbilarmonlik muhitini, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha statistika ishlarini tashkil etish sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan, davlat hokimiyyati va boshqaruв organlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi axborot-statistika tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshliqning birinchi o‘ribbosari rahbarligida amalga oshiradi, bir vaqtning o‘zida uning faoliyat qo‘mitaning ishbilarmonlik muhiti, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi tomonidan muvofiqlashtiriladi va boshqarmaning boshqa tarkibiy bo‘linmalari va tumanlar va shaharlar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

## 2-bob. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) *ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta’minalash, shuningdek faoliyatni muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish sohasida:*

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi ma’lumotlarini Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar va muddatlarda yig‘ish, qayta ishslash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va etkazib berish tizimini takomillashtirish;

Davlat statistika ishlari dasturining Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasiga oid qismi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasi bo‘yicha tahliliy salohiyatni mustahkamlash, Davlat statistika ishlari dasturining mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, uning mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy va bozor islohotlari, iqtisodiyoti tarmoqlari va sektorlarida islohotlarning borishini tavsiylovchi tegishli maqsadli ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligini oshirish bo‘yicha zarur choralarни ko‘rish;

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi axborotlarini shakllantirish masalalari bo‘yicha xududiy organlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

b) *xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:*

makroiqtisodiy, tarmoq va hududiy darajalarda o‘rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishslash bo‘yicha qabul qilingan uslubiy hujjatlarni zamonaviy metodologiyasini amaliyotda qo‘llanishini ta’minalash;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasida xolis, sifatli va dolzarb hisobot ma’lumotlarini tayyorlashni muvofiqlashtirishda ishtirot etish;

xududiy statistika organlari va boshqarmaning tarmoq bo‘limlari bilan hamkorlikda ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasiga oid davlat statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasini ishlab chiqish yuzasida boshqarma rahbariyati orqali qo‘mitaga taklif kiritish.

v) ) *ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistik axborotlarni yig‘ish, qayta ishslash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e’lon qilish sohasida:*

Davlat statistika ishlari dasturining ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasiga oid qismini bajarilishini ta’minalash;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasiga oid davlat statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda, zarur hollarda qog‘oz ko‘rinishida yig‘ishni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshirish hamda dastlabki statistik tahlilini olib borish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'yicha statistik hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid davlat statistika hisoboti ko'rsatkichlarini ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'yicha axborot-statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilab borishni amalga oshirish, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir tushuntirishlar berish;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lган statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, bo'lim ish faoliyati jarayonida vujudga kelgan arxiv hujjatlarini saralash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasiga oid maxfiy statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlash.

*g) belgilangan tartibda davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:*

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni davlat statistika organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar tayyorlash;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish.

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat statistikasi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning viloyatda ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish sohasini to'liq ochib beruvchi ko'rsatkichlardan erkin foydalanishlarini ta'minlaydi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish sohasi bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlarning

takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasi metodologiyasi, statistik ishlarni tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha hududiy statistika organlariga amaliy yordam ko'rsatadi;

Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, rahbariyatni topshirig'iga asosan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan iqtisodiyotning eng muxim ustivor yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarda belgilangan vazifalarni hamda mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning tendensiyasini (holatini) hisobga olgan holda ta'minlaydi.

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi**

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududiy statistika organlari tomonidan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi sohasiga oid davlat statistika kuzatuvi shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

statistika maqsadlarida yuridik va jismoniy shaxslardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan belgilangan tartibda davlat statistika hisobotini olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xususiy tadbirkorlar faoliyatining davlat statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

bo'limga yuklangan vazifalar, funksiyalar va statistik ishlarni bajarish maqsadida davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan, tashkilotlardan belgilangan tartibda ma'lumot va tushuntirishlar olish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, statistikasi sohasiga oid metodik, statistik ishlar va rasmiy statistik ma'lumotlar yuzasidan axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

qabul qilib olinayotgan statistik ma'lumotlarning to'liqliligi, ishonchliligi va xolisligini ko'rib chiqish;

davlat statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish va davlat statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi kuzatuvarlarini tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha rahbariyatlarga takliflar kiritish;

Davlat statistika ishlari dasturi, Davlat statisika ishlarini ishlab chikarish dasturi, Davlat statistika ishlari ish rejalar, bo'lim ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha viloyat statistikasi boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqarma va tashkilot vakillari va boshqarmaning bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

Bo'lim qonun hujjaligiga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

9. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

davlat statistikasi prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanimayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjaligiga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

#### **4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish**

10. Bo'lim faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturi, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, mazkur Nizom, Boshqarma boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Samarqand viloyat statistika boshqarmasining ish rejalarini va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'lim xodimlarining lavozim vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan tuzilib boshqarma boshlig'ining birinchi o'rnbosari bilan kelishiladi hamda, boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

11. Bo'lim boshlig'i qo'yidagi huquqlarga ega:

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

Belgilangan tartibda boshqarma rahbariyati yig'ilishlariga qatnashadi;

Xodimlarni boshqa lavozimlarga ko'rsatish, o'tkazish va rag'batlanirish, zarur hollarda jazolash chorasi qo'llash to'g'risida Boshqarma boshlig'i va uning o'rnbosarlariga takliflar kiritish;

Bo'lim xodimlarining lavozim maoshlariga ustamalar belgilash, shuningdek avvalgi o'rnatilgan ustamalarni kamaytirish yoki bekor qilish bo'yicha Boshqarma boshlig'i va uning o'rnbosarlariga takliflar kiritish;

Boshqarma boshlig'i bilan birga bo'lim faoliyatini takomillashtirish, bo'lim ishlarining samaradorligi darajasini oshirish, ish uslubi

va metodlarini, uni tashkil qilishni yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;